



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko'ksaroy maydoni, 1-uy.

2025-yil 8-oktabr

341-7-0-Q/25

Samarqand viloyati hokimligi

Viloyat hokimining 2025-yil 22- fevraldagи “Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida” 55-7-0-Q/25-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida

Viloyat Bozorlar va savdo komplekslari uyushmasining 2025-yil 20-avgustdagи (217-son) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 20-avgustdagи (02/02-32/428-son), viloya soliq boshqarmasining 2025 yil 24 sentabrdagi (20-145627-son) xulosalari hamda viloyat hokimi birinchi o'rinnbosari Sh.Buranovning 2025-yil 29-avgustdagи (488/01-30-son) bildirgisiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2025-yil 22-fevraldagи “Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida” 55-7-0-Q/25-son qaroriga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.
2. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi (M.Ixtiyorov), viloyat hokimligi huzuridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” DM (N.Norbekov) ushbu qarorni ommaviy axborot vositalarida chop etilishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.
3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinnbosari Sh.Buranov zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Viloyat hokimi v.b.



A. Boboyev

Samarqand viloyati hokimining
2025-yil 8-oktabrdagi
341-7-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Viloyat hokimining 2025-yil 22-fevraldagagi “Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to’lovleri va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 55-7-0-Q/25-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

Qaror 2-ilovasi quyidagi tahrirda 2.8 pozitsiyasi bilan to‘ldirilsin.

T/ R	Ko‘rsatiladigan xizmatlar turi	O‘lchov birligi	Olinadigan to‘lovlar		
			Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shahri, Urgut tumani bozor va savdo komplekslari hamda turg‘un savdo shoxobchalari hududida	Samarqand, Pastdarg‘om, Toyloq, Bulung‘ur, Jomboy, Oqdaryo Narpay tumani bozor va savdo komplekslari hamda turg‘un savdo shoxobchalari hududida	Viloyatning qolgan tumanlari bozor va savdo komplekslari hamda turg‘un savdo shoxobchalari hududida
2.8	Turg‘un savdo shoxobchalarining atrofidan ko‘rgazma stendlar (yoki peshlavha) sifatida qo‘shimcha maydondan foydalanganlik uchun (1 kv.metr uchun bir oylik to‘lov)	1 oyda	34 000	29 000	26 000